

## YOSHLARNING HUQUQIY ONGI VA MADANIYATINI YUKSALTIRISH MASALALARI

**Madrimov Ixtiyor Baxtiyor o‘g‘li**

Urganch davlat universiteti, Tarix fakulteti talabalasi

[ixtiyor\\_madrimov94@mail.ru](mailto:ixtiyor_madrimov94@mail.ru)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yoshlarning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati, voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati yuksaltirish borasidagi masalalar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yoshlar, huquq, davlat siyosati, demokratik, g‘oya Assambleya, Konvensiya, Qonun.

Vatanimizning ertangi kuni, rivojlanishi va olib borilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan xalqimizning huquqiy savodxonligi va huquqiy madaniyati darajasiga bog‘liq. Ma‘lumki, mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarga ta‘lim-tarbiya berish, har tomonlama yetuk shaxsni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Voyaga yetmaganlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular orasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyati darajasini oshirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir.

Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz”<sup>29</sup> deya ta’kidlagandi.

Yoshlar mamlakatning barcha jabhalarida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan ijtimoiy-demografik guruh ekanligi sir emas albatta. Bugungi kunda yoshlar har qanday jamiyatdagi ijtimoiy jarayonlarga salmoqli ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan jamiyatning ma’naviy xavfsizligini ta’minlovchi qudratli kuch hisoblanadi. Shu sababdan ham ta’lim va tarbiya, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, madaniyat va san’at, sportni rivojlantirish masalalari, yoshlarimizning chuqur bilimga ega bo‘lishi, chet tillarini va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini puxta egallashini ta’minlash doimiy ustuvor vazifa bo‘lib kelmoqda.<sup>30</sup>

Mustaqillik davrining dastlabki yillaridanoq, O‘zbekiston xalqaro hamjamiyatning to‘la huquqli a‘zosi sifatida jamiyatning ijtimoiy-huquqiy himoyaga muhtoj katlami hisoblangan bolalarning huquqlarini himoya qilish maqsadida Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi, Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya va boshqa xalqaro huquqning umume’tirof etilgan shartnomalarini ratifikatsiya qildi va bu amaliyot bugungi kunda ham izchillik bilan davom etmoqda. O‘zbekistonda davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralayotgan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va bola huquqlarini kafolatlash borasida keyingi yillarda ko‘plab qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinmoqdaki, ularning barchasi ertangi kunimiz egalari bo‘lgan yoshlar va bolalar manfaatini ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan imzolangan birinchi qonun hujjati – “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun bo‘lganligida ham ramziy ma’no bordek. Albatta, o‘z xalqining kelajagini o‘ylagan davlat bolalar hamda yoshlarni har tomonlama kamol topishlarini ta’minlashida davlat siyosatining muhim yo‘nalishlarini belgilab olishi, bu borada davlat

<sup>29</sup> Mirziyoyev Sh.M O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasidan.

<sup>30</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: O‘zbekiston. 2017. B.-16.

organlarining vakolati hamda vazifalarini real shartlarda aniqlab olishi va sohaning huquqiy asoslarini qat’iy mustahqamlab berishi zarur.

Yuqoridagi qonunning qabul qilinishi yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishning huquqiy asoslarini yaratdi. Unga ko‘ra, yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- ochiqlik va shaffoflik;
- yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;
- yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- yoshlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi.<sup>31</sup>

Fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etuvchi huquqiy davlatning muhim shartlaridan biri aholining huquqiy ongi va madaniyati darajasining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Xalqimizning qonunchilik amaliyotini yaxshi bilishi, qonunlarni qabul qilishdagi umumxalq muhokamalarida fikrlari, takliflari yoki e’tirozlari bilan ishtirok etishlari ham ularning huquqiy savodxonligi darajalari bilan chambarchas bog‘liq. Bundan tashqari, aholining huquqiy ongi va madaniyati mamlakatimizda jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda fuqarolarning ishtirokini ta’minlanishida ham alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvarda qabul qilingan “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618 sonli Farmonining qabul qilinishi huquq tizimida olib borilayotgan ishlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarmoqda. Ushbu Farmon bilan “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish Kontsepsiyasi” qabul qilindi. Ushbu Kontsepsiya orqali fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» degan hayotiy g‘oyani mustahkamlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda

<sup>31</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son.

olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini targ'ib qilish, yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish kabi Konstitutsiyamizning muhim jihatlari ularga bolaligidan boshlab o'rgatish, davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi hamkorligini mustahkamlash kabi muhim vazifalar belgilandi.<sup>32</sup>

Xalqimizning uzoq yillardan beri o'zining purma'no xikmatini yo'qotmagan naqlari bor: “Bola aziz, odobi undan aziz”, “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona” kabi.

Mahallalarimizda, qishloqlarimizda, o'zimiz yashab turgan ko'chamizda ulg'ayayotgan yoshlarimiz, bolalarimiz barchamizniki, ularning tarbiyasiga barchamiz birdek mas'ulmiz. Albatta yoshlarimiz, farzandlarimiz tarbiyasida biroz sustkashlikka yo'l qo'ysak, buning salbiy asoratini yo'qotish o'ta qiyin kechadi. Buning uchun quyidagi vazifalarga alohida ahamiyat berish zarur:

- bolalar ongiga yaxshi – yomon, to'g'ri – o'g'ri, halol – xarom va boshqa shu kabi huquqiy tushunchalarning boshlang'ich elementlarini o'z vaqtida singdirish;
- huquqiy mashg'ulotlar o'tkazish va bola yoshining psixologik-fiziologik jihatlari inobatga olgan holda Konstitutsiya haqidagi ilk tushunchalarni o'rgatib borish;
- MTMLarining tarbiyachi xodimlari va ota-onalar o'rtasida tizimli xamkorlikni yo'lga qo'yish;

<sup>32</sup> Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 22.04.2019-y., 09/19/342/2995-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 18.02.2022-y., 09/22/74/0143-son.

- umumta’lim muassasalarida huquqiy tarbiya sohasining asosi bo‘lgan huquq darslari mavzularini qaytadan ko‘rib chiqish va mashg‘ulotlar hajmini ko‘paytirish;
- huquqiy ongini va madaniyatni rivojlantirishga mo‘ljallangan tadbirlar ta’sirchanligini va bu boradagi ishlar ko‘lamini oshirish;
- respublika miqyosida o‘quvchi-yoshlar o‘rtasida “Muammosiz hayot sari”, “Mening davlatim – mening faxrim, kelajagim” deb nomlangan festivallar o‘tkazish va bu orqali yoshlarning ertangi kunga ishonchi va qiziqishlarini oshirish zarur.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashni istardimki, qaysiki davlat yoshlar huquqiy tarbiyasi borasida ishlar ko‘lami va samaradorligini yetarli darajada ta’minlamas ekan, unday davlatda qonunlarni mensimaslik alomatlari va buning natijasida esa turli qonunbuzilish holatlari, huquqbuzarliklar, jinoyatlar soni ortib boraveradi. Suveren, huquqiy davlat sanalgan O‘zbekiston o‘zining boy tarixiy me’rosiga tayangan holda takrorlanmas davlatchilik yo‘lini belgilab olgan. Biz bu yo‘ldan borar ekanmiz, kelajagimiz egalari bo‘lmish yoshlarimizning huquqiy tarbiyasi dolzarb masala bo‘lib qolaveradi. Zotan, o‘zbek pedagogikasining yorqin namoyondasi A.Avloniy ta’kidlaganlaridek: “Tarbiya-biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo falokat, yo saodat - yo falokat masalasidir”.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mirziyoyev Sh.M O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasi.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.: O‘zbekiston. 2017. B.-16.
3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016-y., 37-son, 426-modda; 2017-y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018-y., 03/18/486/1559-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 26.01.2022-y., 03/22/747/0064-son.
4. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 22.04.2019-y., 09/19/342/2995-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 18.02.2022-y., 09/22/74/0143-son.